

SUV FONDI OBEKTLARINING MUHOFAZA ZONALARI YERLARNI YO'QLAMA QILISHDA KARTOGRAFIK MA'LUMOTLARNI ISHLAB CHIQUISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Boboqulov Baxtiyor Kamol o'g'li

“Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi” ixtisosligi bo'yicha Mustaqil izlanuvchi.

“Navvilyerloyiha” bo'linmasi yetakchi muhandisi.

O'zbekistonda suvga doir munosabatlar, aholi va xalq xo'jaligi ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanish, suvni bulg'anish, ifloslanish va kamayib ketishdan saklash, suvning zararli ta'siri oldini olish va uni bartaraf qilish, suv ob'ektlari holatini yaxshilash tadbir va tartib-qoidalari, shuningdek, suvga doir munosabatlar sohasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning huquqlari qonun bilan tartibga solinadi. O'zbekistonda Davlat suv fondidan qishloq xo'jaligi, energetika, sanoat, kommunal xo'jaligi ta'minoti, baliqchilik, davolash va boshqa maqsadlarda foydalanildi. Orol dengizi havzasida suv resurslari tiklanadigan yer usti va yer osti suvlari hamda qaytma suvlardan tashkil topadi. Bu havzadagi eng yirik daryolar Amudaryo va Sirdaryoning yillik o'rtacha oqimi 115,6 km³ ni (Amudaryo — 78,5, Sirdaryo — 37,1 km³) ni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining suv fondi yerlari 827,2 ming gektarni yoki mamlakat hududining 1,84 foizini, shu jumladan sug'oriladigan maydon 4,8 ming ga ni tashkil etadi. Amaldagi yer va suv qonunchiligiga asosan suv fondi yerlaridan foydalanuvchilar bo'lib yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar. Mulkchilikning shaklidan qat'iy nazar korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo'jaliklari ham da O'zbekiston Respublikasining fuqarolari suv fondi yerlaridan foydalanuvchilar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2019-yil 11-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi hududidagi suv ob'ektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 981-sonli qaroriga muvofiq, daryolar, soylar, suv omborlari va boshqa suv havzalari, suv xo'jaligi ob'ektlari hamda boshqa barcha suv manbalarini sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa ob'ektlarning zararli ta'siridan muhofaza qilishni kuchaytirish masalasi qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi, Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, manfaatdor vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tegishli suv ob'ektlarining suvni muhofaza qilish va sanitariya-muhofaza zonalarini belgilash ishlarini ularning ustivorligidan kelib chiqib o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradilar

Suv fondi yerlari tarkibini uch qismdan iborat deyish mumkin. Shulardan birinchisi suv bilan qoplangan, ya'ni suv ostida, tubidagi yerlardir. Bularga suv xavzalari, ya'ni daryolar, ko'llar, suv omborlari bilan band bo'lgan yerlar kiradi. Aytish mumkinki, suv fondi yerlarining asosiy qismini suv bilan qoplangan yerlar tashkil etadi. Suv bilan qoplangan yerlar deganda yil davomida doimo yoki yilning ko'p qismida suv tagida bo'lgan yerlar tushuniladi. Qisqa vaqt davomida – sug'orish davrida, yomg'ir

vaqtida, daryo toshgan vaqtda suv bilan qoplangan yerlarni biz bu toifaga kiritmaymiz. Suv bilan qoplangan yerlarga yana vaqtinchalik sug'orish kanallari, sho'ri yuviladigan maydonlar, basseynlarni ham kiritish mumkin emas.

Suv ob'ektlarini muhofaza qilish zonalari va ularni mintaqalarga bo'lishni belgilash maxalliy xokimiyat organlarining qarorlariga binoan amalga oshiriladi. Suv xavzalari qirg'oq mintaqalarida yer xaydash, mol boqish, zaxarli-kimyoviy moddalar qo'llash, ishlab chiqarishga xizmat qiladigan qurilishlar qilish, dam olish bazalari qurish man qilinadi.

Suv fondi yerlari huquqiy holatidagi muxim xususiyatlardan biri shundan iboratki, bu yerlarda suv ob'ektlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan xo'jalik faoliyat yuritish va qurilish ishlari olib borish taqiqlanadi (Yer kodeksining 77-moddasi).

Xo'jalik faoliyati yoki qurilish ishlari suvni ifloslanishi va zaxarlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababdan, bu yerlar alohida tartibda muhofaza qilinadi. Shuning uchun Yer kodeksining 77-moddasida belgilanishicha, bunday holatlar ro'y bergan taqdirda bu yerlar tabiatni muhofaza qilish ehtiyojlari uchun yer egalaridan va yerdan foydalanuvchilardan olib qo'yilishi mumkin. Ichki suvlar qirg'oq mintaqalarida qurilmalar va inshootlar qurish faqat tegishli xokimiyat idoralarining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu qurilma va inshootlar suv xo'jaligi maqsadlariga xizmat qilishi lozim.

Suv omborlari va boshqa suv havzalarining suvni muhofaza qilish zonalari ularning butun perimetri bo'yicha belgilanadi va ularning doirasida sohil bo'yi mintaqalari ajratiladi.

•Suv omborlari va boshqa suv havzalarining suvni muhofaza qilish zonasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

•sohilning 50 yil ichida yuvilishi (yemirilishi) bashorat qilinadigan zona (yangi qurilish chegaralangan zona);

•soylik, jarlik, sohil bo'yi qiyaliklari, qiyaligi 5 gradusdan ko'p bo'lgan va nuragan yerlarni o'z ichiga oluvchi eroziya jihatdan aktiv zonalar, suv omborlari va boshqa suv havzalariga bevosita tutashib ketadigan siljuvchi yer uchastkalar;

•suv omborlari va boshqa suv havzalari suv sathining maksimal darajaga ko'tarilishi sharoitida vaqtincha suv bosgan zonalar;

•doimiy suv bosgan zonalar;

•suv omborlari va boshqa suv havzalarining sohillaridagi ihota daraxtzorlari.

Suvni muhofaza qilish zonasining chegaralari joyning o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olingan holda, muvaqqat suv oqimlarining tabiiy va sun'iy suv ayrig'ichlari, daryo vodiysi, yo'l-transport tarmoqlari va boshqa muhandislik inshootlari chetlariga mos tushgan tarzda belgilanadi. Suv omborlari sig'imlarining suvni muhofaza qilish zonasi ichki chegarasi suvning normal ko'tarilgan suv sathi chizig'idan, boshqa suv havzalariniki esa o'rtacha ko'p yillik suv sathi chizig'idan belgilanadi.

Suv omborlari to'g'oni, suv olish va suv chiqarish hamda boshqa inshootlari suvni muhofaza qilish zonasining ichki chegarasi ularning eng chekka konturlaridan (chegaralari) belgilanadi.

Xulosa

Xulosa qilib qilib shuni aytishimiz mumkinki: Suv omborlari va boshqa suv havzalarining suvni muhofaza qilish zonalarini belgilash bo'yicha loyihalarni ishlab chiqishda joylardagi haqiqiy holatni to'liq o'rgangan holda suvni muhofaza qilish zonalarini kengligining yuqori chegarasiga aniqlik kiritilishi lozim. Bunda suvni muhofaza qilish zonalarini kengligining pastki chegarasini kamaytirilishiga yo'l qo'yilmaslik zarur.

Keyingi vaqtlarda daryolar o'zanlari, ko'llar, suvni muhofaza qilish zonalarini, kanallar, kollektorlar va boshqa suv obyektlarini tozalash, shuningdek, ularning qirg'oqlarini mustahkamlash ishlarini o'tkazish ko'rinishida amalga oshiriladigan qum-shag'al materiallarini nazoratsiz qazib olish holatlarini oldini olish.

Suvni muhofaza qilish zonalarining kengligi suv omborlari va boshqa suv havzalarining vazifasidan, ularga tutash yerlarning xususiyatlari hamda ulardan xo'jalik maqsadlarida foydalanish sharoitlari, shuningdek, joyning relefidan kelib chiqqan holda, quyidagicha bo'lishi mumkin:

- katta suv omborlari va boshqa suv havzalari (sig'imi 1,1 mlrd. kub metrdan 10 mlrd. kub metrgacha bo'lgan) atrofida — 200 — 250 metr;
- o'rtacha suv omborlari va boshqa suv havzalari (sig'imi 0,6 dan 1 mlrd. kub metrgacha bo'lgan) atrofida — 150 — 200 metr;
- kichik suv omborlari va boshqa suv havzalari (sig'imi 0,2 dan 0,5 mlrd. kub metrgacha bo'lgan) atrofida — 100 — 150 metr;
- juda kichik suv omborlari va boshqa suv havzalari (sig'imi 0,1 mlrd. kub metrdan kam bo'lgan) atrofida — 50 — 100 metrgacha aniqlanadi.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, 2016, -56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent, O'zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent, O'zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. Toshkent, O'zbekiston, 2017.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (asosiy qonuni). T., O'zbekiston, 2009.
6. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. T., O'zbekiston, 2012
7. Avezbayev S. Volkov S.N. Yer tuzish iqtisodi. Darslik. T.: Yangi asr avlodi, 2002. 290 b.
8. Alonso, J. A. (2013). Xavfli Yer sayyorasi: global isish, iqlim o'zgarishi, echimlar. Universitario tahririyat klubi.

9. Alonso, J. A., Bermudes, F. L. va Rafaelli, S. (2008). Suv eroziyasi tufayli tuproqning buzilishi. Baholash usullarin. Editum.

10. To'shak Gomes, R., Turrent Fernández, A., Kortés Flores, J. I., Livera Muñoz, M., Gonsales Estrada, A., Villar Sanches, B.,... & Cadena Iñiguez, P. (2012). Meksikaning Chiapas shahridagi turli xil boshqaruv tizimlari ostida yamaqlardagi tuproq eroziyasi, oqishi va azot va fosforning yo'qolishi. Meksika qishloq xo'jaligi fanlari jurnali, 3(2), 231-243.

11. Fraume, N. J., & Torres, A. P. (2006). Ekologik alifbo qo'llanmasi: atrof-muhit atamallari uchun eng to'liq qo'llanma (№ 6). San Pablo tahririyati.

12. Gliessman, S. R. (2002). Agroekologiya: barqaror qishloq xo'jaligidagi ekologik jarayonlar. KATIE.

13. Loftas, T. (1995). Ehtiyojlar va resurslar: oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi geografiyasi. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti.

14. Méndez, V. E., & Gliessman, S. R. (2002). Lotin Amerikasi tropiklarida agroekologiya va qishloqlarni rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlarga fanlararo yondashuv. Zararkunandalarga qarshi kurash va agroekologiya, 64(1), 5-16.

INTERNET MA'LUMOTLARI:

1. <http://www.google.com>
2. www.lex.uz
3. www.ziyonet.uz
4. www.ygk.uz
5. www.dissertant.uz
6. www.gov.uz
7. www.ziyo.net.
8. Google scholar.